



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
STATISTIKA BOSHQORMASI**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha  
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

**2018 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2018 yil yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 564,7 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan **25,6 %** ga o'sishni ta'minladi.

**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi**

(2018 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

	<b>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik</b>	<b>Xodimlar soni, ming kishi</b>	<b>Ish haqi fondi, mln. so'm</b>	<b>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</b>
<b>Respublika bo'yicha - jami</b>	<b>1902</b>	<b>137,5</b>	<b>1101410,7</b>	<b>1564,7</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	31	13,5	200223,4	3157,7
Qurilish	11	2,3	26033,5	2211,9
Savdo	20	2,7	19813,9	1612,0
Tashish va saqlash	11	7,8	79797,9	2067,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	0,1	28,0	616,6
Axborot va aloqa	39	1,2	11909,5	1824,5
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	78	3,3	49238,8	2484,3
Ta'lim	1230	66,4	433210,6	1254,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	78	23,3	137139,7	1161,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	45	1,6	10338,5	1192,0
Boshqa faoliyat turlari	357	15,3	133676,9	1365,6

**Ish haqi.** 2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

- ta'limda 1230 ta muassasada 66,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 48,3 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 433210,6 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 39,3 %ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1254,7 ming so'mni tashkil etgan;

- sanoatda 31 ta korxonada 13,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 9,8%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 200223,4 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 18,1%ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3157,7 ming so'mni tashkil etgan;


- sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 78 ta muassasada 23,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 16,9%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 137139,7 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 12,4%ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1161,7 ming so'mni tashkil etgan;

- tashish va saqlashda 11ta korxonada 7,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 5,7%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 79797,9 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 7,4%ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2067,4 ming so'mni tashkil etgan;

- moliyaviy va sug'urta faoliyatida 78 ta muassasada, 3,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,4 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 49238,8 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,4 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2484,3 ming so'mni tashkil etgan;

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida **2026,9** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **129,5** %), Moynoq tumanida **1814,1** ming so'mni (**115,9** %) va Qung'iroq tumanida **1766,3** ming so'mni (**112,9** %) va Taxtako'pir tumanida **1486,0** ming so'mni (**95,0** %) tashkil etgan bo'lsa, Amudaryo tumanida **1144,7** ming so'mni (**73,2** %), Beruniy tumanida **1195,6** ming so'mni (**76,4** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2018 yil yanvar-iyun, respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil yanvar-iyun oylarida **426,5** ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi**  
**bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
 (yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik)

	2018 yil
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1564,7</b>
Nukus sh.	2026,9
<i>tumonlar:</i>	
Amudaryo	1144,7
Beruniy	1195,6
Qorao'zak	1214,5
Kegeyli	1290,3
Qo'ng'iro't	1766,3
Qanliko'l	1374,2
Mo'ynoq	1814,1
Nukus	1296,1
Taxiatosh	1375,8
Taxtako'pir	1486,0
To'rtko'l	1270,7
Xo'jayli	1329,4
Chimboy	1218,1
Shumanay	1209,7
Ellikkala	1213,9



*Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasining  
Demografiya va mehnat statistikasi bolimi*

Nashr uchun mas'ul:

**G.Esboganova**  
(71) 230-82-18